

FANDA O'ZBEK TILI TEONIMLARINING TADQIQI MASALASI

*Raximova Norjongul Mabsud qizi, Urganch davlat universiteti
tayanch doktoranti*

THE PROBLEM OF RESEARCH OF UZBEK LANGUAGE THEONYMS IN SCIENCE

*Rakhimova Norjongul Mabsud kizi, doctoral student of Urgench
state university*

ПРОБЛЕМА ИССЛЕДОВАНИЯ ТЕОНИМОВ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА В НАУКЕ

*Рахимова Норжонгул Махсудовна, базовый докторант
Ургенчского государственного университета*

Annatotsiya: Maqolada o'zbek teonimikasi bo'yicha olib
borilayotgan izlanishlanishlar va teonimlarning tilshunoslikda
o'r ganilishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: teonim, teonymy, theonymics, theolinguistics,
mythonym, agronym, onomastics.

Abstract: The article discusses the ongoing research on
Uzbek theonymics and the study of theonyms in linguistics.

Key words: theonym, theonymy, theonymics, theolinguistics,
mythonym, agronym, onomastics.

Аннотация: В статье рассматриваются текущие
исследования узбекской теонимики и изучение теонимов в
лингвистике.

Ключевые слова: теоним, теонимия, теонимика,
теолингвистика, мифоним, агионим, ономастика.

KIRISH. Tilshunoslikning keng tadqiq
qilinayotgan sohalaridan biri onomastika
hisoblanadi. O'zbek onomastikasi o'tgan asrning
ikkiinchini yarmidan boshlab tilshunoslikning
rivojlangan sohalaridan biriga aylandi. Soha
bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar amalgalga
oshirilganiga qaramay, onomastikaning agionim,
ekklezionim, agnonim, andronim, teonim kabi
birliklari haligacha o'z tadqiqini kutayotgani
ko'pchilik taqdiqotchilarga ma'lum.

“**Teonim**” (yunoncha *teog – xudo* (*Allah*) +
onoma – atoqli ot) – Ollohnning nomi va
atributlarining atoqli oti degan ma'noni bildiradi.
“**Teonimiya**” esa shunday atoqli otlarning to'plami,
yig'indisi, “**teonimika**” shunday onomastik
ko'lamga mansub atoqli otlarni o'rganuvchi soha
ma'nosini bildiradi[2;75]. Teonimlar diniy
muloqotni o'rganuvchi tilshunoslikning yangi
yo'nalishi – **teolinguistik** shakllanishiga turki
bo'ldi. Teolinguistica inglizcha **Theo** – “xudo”,



[https://t.me/orcid.org/
0009-0008-0473-6556](https://t.me/orcid.org/0009-0008-0473-6556)

e-mail:
[raximovanorjongul@gmail.
com](mailto:raximovanorjongul@gmail.com)

“din” va **linguistics** – “tilshunoslik” so‘zlaridan olingen bo‘lib, bu atamani dastlab Van Noppen fanga olib kirgan. Teolingvistika – diniy tilni o‘rganuvchi fan [4]. Jahon tilshunosligida bu yo‘nalish bo‘yicha ilk tadqiqotlar Devid Kristal, Jan Per, Uilyam Samarin kabi taniqli olimlarning ilmiy izlanishlarida ko‘zga tashlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. O‘zbek tilshunosligida keyingi yillarda diniy lingvistika va teonimiya masalalari Z.Do‘simov va M.Tillayevaning “Xorazm onomastikasining shakllanishi va “Avesto”, N.Uluqov “O‘zbekcha diniy matnlar ekzotik leksikasi”, A.O‘rozboyev “Ogahiyning “Riyoz-ud davla” asarida ijtimoiy-siyosiy leksika” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi, Sh.Yusupova “Diniy matnlarning lingvopragmatik tadqiqi”, M.Galiyeva “Dunyoning lisoniy tasvirida diniy-mifologik tafakkurning aks etishi” mavzularida filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyalari, R.Mahmudov “O‘zbek tilida avestizmlar” monografiyalarida va bir qator maqolalarda o‘rganilgan, biroq bu tadqiqotlarda teonimlarning boshqa onomastik va leksik birliklar bilan chegarasi masalalarida hozirgacha bir to‘xtamga kelinmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, B.Yo‘ldashev “O‘zbek onomastikasi masalalari” uslubiy qo‘llanmasida, *Alloh (Xudo // Xudoy, Tangri, Yaratgan, Yazdon, iloh, ilohalar)* va bu tushunchalar bilan bog‘liq atributlar haqida tarixiy, badiiy, etnografik, folklorshunoslik, mifologik, qisman tilshunoslik fanlarida kuzatish olib borilsa-da, teonim, teonimiya tushunchasi uning doirasiga kiradigan aniq lug‘aviy onomastik birliklar, ularning chegarasi va ko‘لامи yuzasidan hozirgacha izchil fikrlar bildirilmaganini aytib o‘tadi [10;64].

NATIJALAR. O‘zbek onomastikasi bo‘yicha olib borilgan nazariy tadqiqotlarda bir tushunchani ifoda qiluvchi *Alloh, Xudo, Tangri* leksemalari, Ollohnning sifatini bildiruvchi atamalar va ularning o‘zbek ismlarida zuhur bo‘lishi, islomgacha mavjud bo‘lgan xudolarning nomlari, afsonaviy maxluqotlar – ajdarho, dev, pari, shayton, jin, ot, bo‘ri va boshqa mavjudotlar nomlari, payg‘ambar, pir va turli ilohiy tushuncha va tasavvurlarning nomlari teonimlar tizimiga kirib, o‘zbek nomlarining o‘ziga xos bir tarmog‘ini tashkil etishi xususida so‘z yuritiladi [1;12]. Ba’zi tadqiqotlarda esa, teonimlardan

payg‘ambar nomlari, ya’ni agionimlarning farqlanmagan holatlarga ham duch kelamiz. Narzullayeva Durdona “Qur’oni Karim”dagi teonimlarning semantik-funksional qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan maqolasida teonimika, turli diniy tasavvurlar bo‘yicha ifodalangan xudolar, ma’budlar, payg‘ambarlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlarini qamrab oladi”, – deydi [6;51]. Tadqiqotchi maqolada 27 ta payg‘ambarning ismlari tavsifini keltirib o‘tadi. “Qur’oni Karim”dagi umumiyligi teonimlarga misol sifatida *Furqon, Majid, arabiy, Qadr kechasi, Ramazon oyi, Jabroil farishta, Muhammad payg‘ambar, Nas surasi, Baqara surasi, Kavsar surasi* kabilarni ko‘rsatadi. Ayrim ilmiy izlanishlarda teonimlarga farishta nomlari ham kiritilib tadqiq qilinmoqda. N.Uluqov o‘zining “Ekzotik leksika” nomli monografiyasida teonimlarga Alloh va uning sifatlarini, farishtalarini ifodalovchi atoqli otlarni kiritadi. O‘zbekcha diniy matnlarda bir qator farishtalar nomi ham uchraydi. Bu teonimlar diniy ruh ifoda etuvchi ekzotizmlarning asosiy turlaridan biri ekanligini ta’kidlaydi [9;84].

Boshqa bir tadqiqotlarda o‘zbek tilidagi teonimlarni o‘rganish ancha qiyinchilik tug‘dirayotganiga urg‘u berilyapti, buning asosiy sababi teonimlarning chegarasi hanuzgacha tilshunoslikda yechim topmagan masalalardan biri ekanlidigadir. Jumladan, Sohiba Elmuradovaning “Hozirgi zamon tilshunosligida teonimlarni o‘rganishdagi qiyinchiliklar” nomli maqolasida teonimlarning o‘zbek onomastikasining alohida bo‘limi sifatidagi ahamiyatiga qaramay, boshqa turdagisi xos nomlardan farqli o‘laroq, zamonaviy tadqiqotchi uchun alohida qiyinchilik tug‘dirishini, teonimlarning onomastikada yetarlichcha izohlanmaganligida, – deydi [3;291]. Shu boisdan bo‘lsa kerak, muallif maqolasida *shaytoni lain* teonim sifatida “la’natlangan”, “Xudoning dargohidan quvilgan” degan ma’noni anglatishini va *avliyoulloh, avliyo, valiy* leksemalarini ham teonimlar sifatida tahlilga tortilganini ko‘rishimiz mumkin.

MUHOKAMA. Bugunga qadar teonimlar bir-biridan tafovut qiluvchi tahlillar asosida tadqiq qilindi. Yuqorida keltirilgan misollardan ma’lum bo‘ladiki, o‘zbek tilshunosligida teonimlarga Alloh ismlari, payg‘ambar nomlari, farishta nomlari, dev va parilar, diniy bayram nomlari kiritilib teonimiya

sifatida tadqiq qilingan. Biroq, E.Begmatov va N.Uluqov tomonidan nashr qilingan “O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘atida” bu masalalarga oydinlik kiritilganini ko‘rishimiz mumkin. *Mifonim* (yun. mifos – afsona, ertak + onoma – atoqli ot) – afsonalar, epopeyalar, ertaklarda uchraydigan atoqli otlar, masalan, *Odam ato, Momo Havo*; **Mifozoonim** – moddiy olamda mavjud emas, ammo afsonalar, rivoyatlarda uchraydigan, odamlar rostdan mavjud deb, tasavvur qiladigan hayvonlarning atoqli oti [2;47], deb izohlanadi, ya’ni dev, ajdarho va parilar bunga misol bo‘la oladi. Ajdar va devlar inson tasavvurida salbiy ma’no kasb etib, insonga zarar yetkazuvchi maxluq hisoblanadi. Shunday ekan, bunday tushunchalarga teonim emas, mifonim sifatida qarash lozim[8,59]. Endi payg‘ambar nomlari nima sababdan teonimlar tizimiga kirmasligini izohlashga harakat qilamiz. **Payg‘ambar** so‘zi forscha bo‘lib, *payg‘om* – “xabar”, *burdan* – “keltirmoq”, ya’ni “xabar keltiruvchi”, “elchi” ma’nolarini bildiradi. Payg‘ambar nomlari diniy lingvistikating salmoqli qismini tashkil qiluvchi leksik birliklar hisoblanadi. Biroq ularni teonimlarga emas, agionimlarga kiritib tadqiq qilsak, to‘g‘riroq yondashuv bo‘lishi mumkin. **Sababi Agionim** (yunoncha *agio* – “muqaddas” + *onoma* – “atoqli ot”) – muqaddas deb hisoblanuvchi narsalar, obyektlar, shaxslar atoqli oti degan ma’nolarni anglatadi[2;11]. Payg‘ambar nomlari ham muqaddas deb hisoblanuvchi shaxs nomlari hisoblanadi.

A.O‘rozboyevning “Ogahiy tarixiy asarlari leksikasiga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyasida diniy terminlar tahlilga tortilgan va ular quyidagicha tasniflanadi: a) mutloq iloh tushunchasini ifodalovchi so‘zlar; b) payg‘ambar tushunchasini ifodalovchi so‘zlar; d) farishta tushunchasini ifodalovchi so‘zlar; e) jannat va do‘zax tushunchasini ifodalovchi so‘zlar; f) ibodatga aloqador tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar; g) turli mazmundagi diniy terminlar. Ushbu yondashuvda farishta nomlari alohida guruh sifatida tasnifanganini ko‘rishimiz mumkin. Tadqiqotching ushbu tasnifi, bizningcha, farishta nomlарini teonimlarga kirmasligi uchun asos bo‘la oladi.

Tillayeva Muyassar Botirovnanning “Xorazm onomastikasi tizimining tarixiy-lisoniy tadqiqi” (“Avesto” onomastikasiga qiyoslash

asosida) mavzusidagi filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi ikkinchi bobining uchinchi bo‘limi “Tangri nomlari” deb nomланади. Dissertatsiyada *Obon, Ozar, Otar, Armaytiy, Anaxito, Voyu, Izad, Xurshid, Xurdod, Ahura Mazda, Bahrom* kabi tangri nomlarining lisoniy-ma’noviy xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi. Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “Afsonaviy mavjudotlar nomi (mifonimlar)” deb nomланади[5;67]. Unda “Avesto”da uchraydigan mifologik jonivorlar *Oziy, Ajdahoyi shoxdor, Aji dahoka, Ashmug’, Duruj* kabi mifologik obrazlar tahlil qilingan.

Raufjon Mahmudovning “O‘zbek tilida avestizmlar” monografiyasining ikkinchi bobida “Ishonch-e’tiqodga oid avestizmlar” tahlil qilingan. Dissertatsiyaning ikkinchi bob birinchi fasli “O‘zbek tilida ilohiyot bilan bog‘liq avestizmlar”ga bag‘ishlanib, ushbu faslda Xudo va tangri so‘zlarining etimologiyasi izohlangan. Ikkinci bobning ikkinchi faslda “O‘zbek tilida mifologik tasavvurlar bilan bog‘liq avestoviy so‘zlar” tahlil qilinib, *Erhubbi, Obon, pari, dev* kabi bir qancha mifonimlarga to‘xtalib o‘tilgan. Ushbu tadqiqotlarda tadqiqotchilarning mifonim va teonimlarni tasniflashda to‘g‘ri yo‘l tutganini ko‘rishimiz mumkin.

J.Omonturdiyev va A.Omonturdiyevlar hammuallifligida nashr qilingan “Ma’rifiy-irfoniy istilohlar” lug‘ati diniy, diniy-falsafiy, diniy-ma’rifiy, diniy-dunyoviy bir ming besh yuzga yaqin leksemalarning izohi keltirilgan. Biroq ushbu lug‘atga teonimlarning ancha qismi kiritilmay qolgan.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, teonim deganda faqat Alloh nomlari va uning sifatlari, ya’ni Allohning ismlarini, Alloh tushunchasini ifodalovchi (yaratgan, parvardigor, robbi, iloh kabi) leksemalarni ham tushunishimiz lozim. *Allohning nomi* – olamda butun mavjudotni bor qilgan (yaratgan), ularning taqdirini o‘z qo‘lida tutib turuvchi ilohiy kuch (*Alloh, Xudo, Tangri, O‘g‘on*)ning atoqli otidir[2;58]. Aniqroq qilib aytganda, teonimiya tizimiga Alloh va uning 99 ta ismi, islomgacha bo‘lgan davrlardagi, ya’ni ko‘pxudolik davridagi xudolarning nomlari kiradi. Bugungi kunda ushbu masalalarni o‘rganishning ortib borayotgani bu sohaning rivojlanishi uchun turtki bo‘lyapti desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бегматов Э., Дўсимов З., Нафасов Т., Кораев С. Ўзбек номшунослиги: тадқик йўналиши ва усуслари. Урганч шаҳрида бўлиб ўтган номшуносликка бағищланган собиқ Иттифоқ миқёсидаги илмий-амалий конференцияси маъruzalар тезислар // Хива, 1991.
2. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли лугати. – Наманганд, 2006.
3. Elmuradova S. Hozirgi zamон tilshunosligida teonimlarni o‘rganishdagi qiyinchiliklar. O‘zbekiston Milliy universiteti xabarlari. 2022, 1/12.
4. <https://www.definitions.net/definition/theolinguistics>; www.yourdictionary.com; en.wiktionary.com
(date of access: 12.01.2019)
5. Тиллаева М. “Хоразм ономастикасининг шаклланиши ва “Авесто”. – Тошкент, 2010.
6. Narzullayeva D. “Qur’oni Karim”dagi teonimlarning semantik-funksional qiyosiy tahlili. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar, 11-son. 2023
7. Омонтурдиев Ж., Омонтурдиев А. Маърифий-ирфоний истилоҳлар лугати. – Тошкент, 2014.
8. Примов А. Ўзбек тили теонимларини ўрганиш масалаларига доир. Тил тизими сатҳлари: Семантик-функционал ва структур асослар. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Самарқанд, 2009.
9. Улуқов Н. Экзотик лексика. – Тошкент, 2021.

Йўлдашев Б. Ўзбек ономастикаси масалалари. – Самарқанд, 2011.

